



RAQAMLI KOMMUNIKATSIYA VOSITALARINING (TELEGRAM, WHATSAPP VA BOSHQALAR) DIALOG SHAKLIGA TA'SIRI

Jumayeva Mohinur Jabbor Qizi

1-ixtisoslashgan maktab o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada raqamli kommunikatsiya vositalarining (Telegram, WhatsApp va boshqa messenjerlarning) zamonaviy dialog shakliga ta'siri tahlil qilinadi. Dialog tilshunosligi doirasida an'anaviy yuzma-yuz muloqot va virtual yozma-suhbatlar o'rtasidagi o'zaro farqlar, ularning strukturaviy hamda pragmatik xususiyatlari qiyosiy yondoshuv asosida ko'rib chiqiladi. Messenjerlarda kuzatiladigan qisqartmalar, emoji, stiker, ovozli xabarlar va multimodal belgilar dialogning ko'p qirrali shakllanishiga sabab bo'layotgani ilmiy asoslanadi. Shuningdek, raqamli muloqotning tezkorligi, ijtimoiy tarmoqlarda nutqiy etiketa me'yorlarining yangicha ko'rinishlari hamda kommunikativ samaradorlikka ta'siri yoritiladi. Maqola natijalariga ko'ra, raqamli vositalar dialogning yangi janrlarini shakllantirib, zamonaviy til ma'daniyati va nutqiy amaliyotda muhim o'rin egallagani ta'kidlanadi.

Kalit so'zlar: raqamli kommunikatsiya, dialog, messenjer, multimodal belgilar, nutqiy etiket, zamonaviy muloqot.

Raqamli kommunikatsiya vositalarining kundalik muloqotda tutgan o'rni kundan-kunga ortib bormoqda. Jumladan, Telegram, WhatsApp, Facebook Messenger kabi platformalar bugungi kunda nafaqat xabar almashish, balki keng doiradagi muloqotning shakllanishida asosiy vositalardan biriga aylangan. Ushbu vositalar orqali kechadigan dialog shakli an'anaviy og'zaki yoki yozma nutqdan keskin farqlanadi. Ular dialogik muloqotning pragmatik xususiyatlarini tubdan o'zgartirgan. Avvalo, raqamli kommunikatsiya nima degan savolga javob bersak, bu internet va mobil texnologiyalar orqali amalga oshiriladigan muloqot shakli bo'lib, unda xabar almashish raqamli kodlar orqali uzatiladi. [Crystal, D 2006] Raqamli muloqot vositalarida muloqot sinxron (bir vaqtning o'zida) va asinxron (turli vaqtlarda javob berish) shakllarda olib borilishi mumkin. Bu esa suhbatdoshlarga vaqt va joydan qat'i nazar o'z fikrini ifoda etish imkonini beradi. Misol uchun, Telegramda yuborilgan ovozli xabar yoki yozma xabar suhbatdosh tomonidan istalgan vaqtda ko'rilishi va unga javob berilishi mumkin. Shu tarzda muloqot tempining o'zgaruvchanligi dialog tarkibida yangi pragmatik mexanizmlarni yuzaga keltiradi.

Raqamli kommunikatsiyada multimodal (ko'p kodli) vositalarning — matn, emoji, stiker, gif, ovozli va video xabarlar — qo'llanishi dialog shaklini yanada boyitadi. Multimodal vositalar aslida yozma matn bilan bir qatorda qo'llanadigan tasvir, emoji, gif, stiker, ovozli yoki vizual element orqali ifodalanadigan qo'shimcha ma'no qatlamlari hisoblanadi. [Baron, N.S. 2008] Masalan, "☐" yoki "☐" kabi emojilar gapiruvchining





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

hissiy munosabatini ifodalashga xizmat qiladi. Bu kabi belgilar muloqotning pragmatik jihatini, ya'ni ifoda qilinayotgan xabar ortidagi maqsad, kayfiyat va niyatni ochib beradi.

WhatsApp yoki Telegram guruhlarida olib boriladigan muloqotlar ko'p hollarda rasmiy va norasmiy uslub aralashmasi bilan kechadi. Misol uchun, ishchi guruhda rasmiy topshiriq berilishi mumkin: "Iltimos, bugungi hisobotni soat 17:00 gacha yuboring". Shu bilan birga, shu guruhda norasmiy tarzda gaplashuv ham bo'lishi mumkin: "Bugun choyxona bormi? ☐". Bu holat dialogik nutqning kontekstga bog'liqligi va uning tez-tez pragmatik o'zgaruvchanligini ko'rsatadi.


Bundan tashqari, raqamli vositalarda tez-tez qisqartmalar va ingliz tilidan o'zlashtirilgan so'zlar ishlatiladi. Bu holat tildagi iqtisodiylik (brevity) tamoyiliga xizmat qilsa-da, ba'zida tushunmovchiliklarga ham olib keladi. Misol: "Ok, keldi" yoki "brb" (be right back).

Raqamli kommunikatsiyada muloqot ishtirokchilarining ijtimoiy roli va maqomi ham muhim omil hisoblanadi. Misol uchun, Telegramdagi rasmiy kanal administratorining yozgan bayoni: "Hurmatli obunachilar, ertaga yangi video e'lon qilinadi" iborasi, xabardor qilish va rasmiylik nutqi jihatidan yuqori maqomdagi nutq akti bo'lsa, guruhdagi oddiy foydalanuvchining: "Kechirasiz, link 2025" iborasi esa norasmiy, soddaroq va maqom jihatidan pastroq nutq akti sifatida namoyon bo'ladi. Bu holat raqamli kommunikatsiyada ijtimoiy rol va maqomga qarab til vositalarining turlicha qo'llanilishini ko'rsatadi. Shuningdek, rasmiy kanal administratori tomonidan qo'llaniladigan til etiketi va oddiy foydalanuvchi nutqidagi qisqartmalar, emotikonlar(oddiy klaviatura belgilari yordamida yuz ifodasi va kayfiyatni ko'rsatish usuli) yoki stikerlardan foydalanish o'zaro farqlanadi. Natijada, messenjerlardagi dialoglarda rasmiylik va norasmiylikning sintezi yuzaga keladi, bu jarayon raqamli muloqotning yangi janrlarini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Messenjerlarda nutqiy etiket nihoyatda muhim ahamiyatlidir. Bunda muloqotda odob, hurmat, ijtimoiy munosabatni bildiradigan til vositalari (salomlashish, minnatdorchilik, kechirim so'rash va boshqalar) ishtirok etadi. Raqamli kommunikatsiyada bu an'anaviy shakllar yangicha ko'rinish olmoqda. Masalan: Salomlashish: "Assalomu alaykum" o'rniga "Salom ☐" yoki faqat "☐" emoji qo'llash. Minnatdorchilik: "Rahmat" o'rniga "☐" belgisi. Xayrlashish: "Xayr" o'rniga "Bye ☐". Kechirim so'rash: "Uzi" o'rniga "☐" emoji. Bu — nutqiy etiketning yangicha, multimodal shakli hisoblanadi.

Kommunikativ samaradorlikka ham bevosita ta'sir ko'rsatadi: tezkorlik – birgina emoji yoki qisqa belgi (☐, ☐, ♥☐) orqali butun jumla o'rnini bosadi va vaqtni tejaydi; ekspressivlik- oddiy matndan ko'ra, emoji va stikerlar hissiyotlarni aniq yetkazadi; shaxslararo yaqinlik- norasmiy etiket shakllari(kulgu, mem, gif) suhbatni iliq qiladi, yaqinlikni oshiradi.

Ammo xavfli jihatlari- juda qisqa yoki emoji asosidagi nutq rasmiylikni pasaytirib yuborishi mumkin, noto'g'ri qo'llansa, muloqot samaradorligini kamaytiradi.





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

Xulosa qilsak, raqamli kommunikatsiya vositalari muloqot jarayonida nutqiy etiket me'yorlarining yangicha ko'rinishlarini shakllantirdi. An'anaviy salomlashish, xayrlashish, minnatdorchilik bildirish yoki kechirim so'rash kabi muloqot birliklari bugungi kunda qisqartmalar, emoji, stiker va multimodal belgilar orqali ifodalanmoqda. Bu jarayon bir tomondan, kommunikativ samaradorlikni oshirib, hissiyotni tezkor va ixcham tarzda yetkazishga xizmat qilsa, ikkinchi tomondan, rasmiylikni pasayishiga ham olib kelishi mumkin. Shunday qilib, zamonaviy nutqiy etiket vositalari kommunikatsiyaning yangicha janrlarini shakllantirgan holda, muloqotning tezkorligi, hissiy ifodaliligi va shaxslararo yaqinlikni ta'minlashda muhim omil bo'lib qolmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Crystal, D. (2006). Language and the Internet (2nd ed.). Cambridge: Cambridge University Press.
2. Yule, G. (1996). Pragmatics. Oxford: Oxford University Press.
3. Werry, C. C. (1996). Linguistic and interactional features of Internet Relay Chat. In S. C. Herring (Ed.), Computer-Mediated Communication: Linguistic, Social, and Cross-Cultural Perspectives (pp. 47–64). Amsterdam: John Benjamins.
4. Baron, N. S. (2008). Always On: Language in an Online and Mobile World. Oxford: Oxford University Press.
5. Hasanboyeva, O. (2019). O'zbek tilida nutqiy etiket va uning lingvopragmatik xususiyatlari. Toshkent: O'zMU nashriyoti.
6. Karimov, Sh. (2021). Raqamli kommunikatsiya va uning ijtimoiy-lisoniy xususiyatlari. Filologiya masalalari

